Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81’25

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Korpus lingvistikasing tarjimashunoslikdagi zamonaviy imkoniyatlari

Nilufar Salimjonovna Botirova*

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti

✉ nilufartukhtamurodova211@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda korpus lingvistikasining zamonaviy tarjimashunoslikdagi imkoniyatlari, nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Korpus asosidagi yondashuvning tarjima jarayonini empirik va statistik ma’lumotlar asosida o‘rganishdagi o‘rni yoritiladi. Parallel va qiyosiy korpuslardan foydalanish orqali tarjima universaliyalari, tarjimon uslubi, tarjima strategiyalari hamda leksik-grammatik xususiyatlarni aniqlash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, korpus texnologiyalarining mashina tarjimasi, atamashunoslik, tarjimon tayyorlash va tarjima sifatini baholashdagi ahamiyati ochib beriladi. O‘zbek tarjimashunosligida milliy korpusning rivojlanishi va undan tarjima tadqiqotlarida foydalanish istiqbollari ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar

korpus lingvistikasi, tarjimashunoslik, parallel korpus, qiyosiy korpus, tarjima universaliyalari, tarjimon uslubi, korpus texnologiyalari, mashina tarjimasi, milliy korpus

DOI: 10.5281/zenodo.23278456

Kirish.

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda tarjimashunoslik fani ham tadqiqot metodlarini o‘zlashtirib kelyapti. Shulardan biri korpus lingvistikasi bo‘lib, u katta hajmdagi electron matnlar to‘plamini(korpusni) statistic va lingvistik tahlil qilish orqali til hodisalarini obyektiv o‘rganish imkonini beradi. Tarjimashunoslikka korpus lingvistikasi metodlarining olib kirilishi XX asrning 90-yillarida M.Beyker tadqiqotlari bilan bog‘liq bo‘lib, u (corpus-based translation studies) deb nomlanuvchi yangi yo‘nalishning asoschisi sifatida tan olinadi.

Materiallar va usullar.

Ushbu tadqiqotimizning maqsadi korpus lingvistikasining tarjimashunoslik fanidagi zamonaviy imkoniyatlarini ochib berish, uning nazariy va amaliy ahamiyatini tahlil qilish hamda korpus lingvistikasi metodlarining o‘zbek tarjimashunosligida tutgan o‘rni va keltirayotgan foydasini ko‘rsatishdan iborat. Mavzuning dolzarbligi shundaki, korpus texnologiyalari tarjima sifatini oshirishning, tarjima universaliyalarini aniqlashning va milliy til boyligini saqlashning muhim vositasi sanaladi. Korpus lingvistikasi tilni haqiqiy foydalanish namunalari(elektron matnlar) asosida, komyuter vositasida tahlil qiluvchi tilshunoslik yo‘nalishi. Tarjimashunoslikda bu metod parallel korpuslar (manba va tarjima matnlari o‘zaro moslashtirilgan korpus) hamda qiyosiy korpuslar (tarjima qilingan va tarjima qilinmagan matnlar korpusi) orqali amalga oshiriladi.

M.Oloxan ta’kidlashicha, korpus lingvistikasi tarjimashunoslikka empirik, ya’ni nazariy taxminlardan ko‘ra kuzatilgan til dalillariga asoslangan tadqiqot metodologiyasini olib kiradi , bu esa tarjima jarayonini subyektiv baholashdan xoli qiladi va xulosalarni statistik jihatdan asoslashga xizmat qiladi. Korpus asosidagi tahlil tarjimonning leksik-grammatik tanlovlarini, tarjima strategiyalarini va matn turiga xos xususiyatlarini yirik miqdordagi matn materiali asosida aniqlash imkonini beradi. Bu esa an’anaviy, kichik hajmdagi matn namunalariga

asoslangan tadqiqotlarga nisbatan ancha ishonchli va umumlashtirilgan xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

S.Lavioza korpusga asoslangan tarjimashunoslikning uchta asosiy yo‘nalishini ko‘rsatadi: tarjima universaliylarini aniqlash, tarjimon uslubini (translator's style) o‘rganish va tarjima sifatini baholash . Ushbu yo‘nalishlar doirasida olimlar korpus ma’lumotlari asosida tarjima matnlariga xos umumiy tendensiyalarni, jumladan, soddalashtirish (simplification), aniqlashtirish (explicitation) va me’yorlashtirish (normalization) kabi hodisalarni aniqlashga erishganlar. G.Turi tarjima universaliylarini ehtimoliy qonuniyatlar sifatida talqin qilib, ularni faqat katta hajmdagi korpus ma’lumotlari asosidagina tekshirish mumkinligini ta’kidlaydi . E.Chesterman esa universaliylarni ikki turga – manba matn bilan bog‘liq (S-universals) va maqsadli tildagi boshqa matnlar bilan bog‘liq (T-universals) turlarga ajratib, ularni tekshirish uchun korpus metodologiyasining zarurligini ko‘rsatadi. Zamonaviy korpus lingvistikasi imkoniyatlari yana quyidagilarni o‘z ichiga oladi: mashina tarjimasi tizimlarini korpus ma’lumotlari asosida o‘qitish, atamashunoslik bazalarini avtomatik tarzda yaratish, tarjimon ta’limida parallel korpuslardan foydalanish hamda tarjima tanqidida obyektiv, miqdoriy ko‘rsatkichlarga asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish. Bunday imkoniyatlar tarjimashunoslikni an’anaviy tavsifiy fandan empirik, dalillarga asoslangan fanga aylantirishda muhim ahamiyatga ega.

Natija va muhokama.

O‘zbek tilshunosligida ham korpus lingvistikasiga bo‘lgan qiziqish so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortdi. N.Abdurahmonovaning tadqiqotlarida korpus lingvistikasining nazariy asoslari, uning o‘zbek tili misolida qo‘llanilishi masalalari atroflicha yoritilgan . Muallifning fikricha, milliy til korpusini yaratish nafaqat tilshunoslik, balki tarjimashunoslik uchun ham katta ahamiyatga ega, chunki korpus ma’lumotlari orqali o‘zbek tilidagi tarjima matnlarining leksik-grammatik xususiyatlarini, shuningdek manba va tarjima tillari o‘rtasidagi moslik darajasini obyektiv o‘rganish mumkin bo‘ladi. G.Toirova o‘zining monografiyasida o‘zbek tili milliy korpus menejerini yaratish texnologiyasini tadqiq etib, bunday tizimning kompyuter lingvistikasi va tarjima amaliyoti uchun amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi. Bugungi kunda uzbekcorpora.uz platformasi doirasida o‘zbek tili milliy korpusining dasturiy ta’minoti yaratilgan bo‘lib, u so‘z va iboralarni korpus bo‘ylab qidirish (konkordans), morfologik razmetka va lemmalash imkoniyatlarini taqdim etadi. Bunday elektron korpus bazalarining yaratilishi o‘zbek tilidan xorijiy tillarga va aksincha yo‘nalishda amalga oshiriladigan tarjima jarayonlarini ilmiy asosda tadqiq etish, tarjima lug‘atlari va atamashunoslik bazalarini boyitish hamda tarjimon tayyorlash jarayonida amaliy material sifatida foydalanish imkonini yaratadi. Shunday qilib, korpus lingvistikasi metodlari o‘zbek tarjimashunosligi uchun bir qator amaliy foydalar keltiradi: birinchidan, tarjima matnlarini yirik miqyosda tahlil qilish orqali tarjimon uslubi va tarjima strategiyalarini obyektiv baholash imkonini beradi; ikkinchidan, o‘zbek tilidagi tarjima asarlarida uchraydigan umumiy tendensiyalarni (masalan, kalkalash, soddalashtirish hodisalarini) aniqlashga yordam beradi; uchinchidan, ikki tilli va ko‘p tilli parallel korpuslar yaratish orqali tarjimon ta’limi sifatini oshiradi hamda avtomatlashtirilgan tarjima va atamashunoslik tizimlarini takomillashtirishga zamin yaratadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, korpus lingvistikasi zamonaviy tarjimashunoslik fanining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. U tarjima jarayonini empirik dalillarga asoslangan holda o‘rganish, tarjima universaliylarini aniqlash hamda tarjima sifatini obyektiv baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘zbek tarjimashunosligida esa korpus lingvistikasi, ayniqsa milliy til korpusining yaratilishi va rivojlanishi, tarjima amaliyoti va nazariyasini yangi, ilmiy-empirik asosga ko‘tarish, shuningdek milliy tilning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta’minlash borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Baker M. Corpus Linguistics and Translation Studies: Implications and Applications // Text and Technology: In Honour of John Sinclair / Ed. by M. Baker, G. Francis, E. Tognini-Bonelli. – Amsterdam: John Benjamins, 1993. – P. 233–250.

[2] McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – P. 1–20.

[3] Baker M. Corpus Linguistics and Translation Studies: Implications and Applications // Text and Technology: In Honour of John Sinclair / Ed. by M. Baker, G. Francis, E. Tognini-Bonelli. – Amsterdam: John Benjamins, 1993. – P. 233–250.

[4] Laviosa S. Corpus-based Translation Studies: Theory, Findings, Applications. – Amsterdam: Rodopi, 2002. – 138 p.

[5] McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 294 p.

[6] Olohan M. Introducing Corpora in Translation Studies. – London: Routledge, 2004. – 224 p.

[7] Toury G. Probabilistic Explanations in Translation Studies: Welcome as They Are, Would They Qualify as Universals? // Translation Universals: Do They Exist? / Ed. by A. Mauranen, P. Kujamäki. – Amsterdam: John Benjamins, 2004. – P. 15–32.

[8] Chesterman A. Beyond the Particular // Translation Universals: Do They Exist? / Ed. by A. Mauranen, P. Kujamäki. – Amsterdam: John Benjamins, 2004. – P. 33–49.

[9] Абдураҳмонова Н. Корпус лингвистикаси. – Тошкент, 2023. – 240 б.

[10] Тоирова Г. Ўзбек тили миллий корпуси менежерини яратиш технологияси: Монография. – Тошкент, 2021.

[11] https://uzbekcorpus.uz/ (murojaat sanasi:26.08.2026)